

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI**

Himoyaga <<_____>>

Kafedra mudiri _____N.Tursunov

<<____>> _____2013-yil.

BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu:

**“Internet tarmog’ida taqiqlangan himoyalash (filtr) vositalarini ishlab
chiqish”**

Bitiruvchi: Hojiboyev Sh.

Rahbar: Xadjimuratova Z.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

Fakultet: Fiqh, iqtisod va tabiiy fanlar

Kafedra: Informatika va axborot texnologiyalari

Yo'nalish: Informatika va axborot texnologiyalari

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri t.f.n N.Tursunov

«_____» _____ 2013-y.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishga

TOPSHIRIQ

Hojiboyev Shohruh Bekmurzayevich

1. BMI mavzusi: «Internet tarmog'ida taqiqlangan himoyalash (filtr) vositalarini ishlab chiqish».
2. Universitet qarori bilan tasdiqlangan «_____» _____
3. Ishni to'liq bajarish uchun berilgan vaqt _____
4. Ishning boshlang'ich ma'lumotlari: UserGate, Kerio Control, Traffik Control dasturlar.

5. Hisob tushuntirish matni mundarijasi (ishni bajarishdagi masalalar ro'yxati)

Kirish

1. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoya tizimini ishlab chiqishning dolzarbligi.

2. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoya tizimi algoritmini, strukturasini ishlab chiqish.

3. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoya tizimi yaxlitligini ta'minlash

4. Hayot faoliyati xavfsizligi.

5. Xulosa

6. Topshiriq berilgan kun _____

Rahbar :

Topshiriqni oldi :

8. BMI ishining har bir bo'limida bajariladigan ishlarga maslahatlar

№	Bo'lim	Rahbar F.I.O.	Imzo vaqt	
			Topshiriq berdi	Topshiriq oldi

1	1.1. Elektron globallashtirish sharoitida internet tarmog'ini nazorat qilish muhimligi.			
	1.2. Internetdagi saytlarni nazorat qiluvchi dasturlar tahlili.	Xadjimuratova Z.		
	1.3. Internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar.			
2	2.1. Internetdagi nomaqbul saytlardan himoyalash algoritmini ishlab chiqish.	Xadjimuratova Z.		
	2.2. Ishlab chiqilgan algoritm asosida dastur strukturasini ishlab chiqish.			
	2.3. Ishlab chiqilgan algoritm va strukturani dasturiy amalga oshirish uchun dasturlashtirish vositalarini tanlash.	Xadjimuratova Z.		
3	3.1. Natijalar tahlili			
	3.2. Foydalanuvchiga qo'llanma	Xadjimuratova Z.		
	Hayot faoliyati xavfsizligi			

9. Ishni bajarish grafigi.

№	BMI bo'limlarining nomlari	Bajarish muddati	Bajarilganligi haqida rahbar imzosi
	1. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoya tizimini ishlab chiqishning dolzarbligi. 2. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoya tizimi algoritmini, strukturasini ishlab chiqish. 3. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoyalash (filtr) vositalarini ishlab chiqish dasturi natijalarini tahlil qilish. Hayot faoliyati xavfsizligi		

Bitiruvchi _____

«_____» _____ 2013

Rahbar _____

«_____» _____ 2013

Mundarija

Kirish.....	8
I BOB. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoya tizimini ishlab chiqishning dolzarbligi.....	11
1.1. Elektron globallashuv sharoitida internet tarmog'ini nazorat qilish muhimligi.....	11
1.2. Internetdagi saytlarni nazorat qiluvchi dasturlar tahlili.....	17
1.3. Internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar.....	19
II BOB. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoya tizimi algoritmini, strukturasini ishlab chiqish.....	25
2.1. Internetdagi nomaqbul saytlardan himoyalash algoritmini ishlab chiqish.....	25
2.2. Ishlab chiqilgan algoritm asosida dastur strukturasini yaratish.....	30
2.3. Ishlab chiqilgan algoritm va strukturani dasturiy amalga oshirish uchun dasturlashtirish vositalarini tanlash.....	31

III BOB. Internet tarmog'ida taqiqlangan himoyalash (filtr) vositalarini ishlab chiqish dasturi natijalarini tahlil qilish.....	32
3.1. Natijalar tahlili.....	32
3.2. Foydalanuvchiga qo'llanma.....	36
Hayot faoliyati xavfsizligi.....	38
Xulosa.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar ro'yxati.....	47
Ilovalar.....	49

Kirish

“Biz tezkor texnikaviy taraqqiyot shiddat bilan rivojlanayotgan va muntazam yangilanayotgan zamonaviy yuqori texnologiyalar, axbort – kompyuter tizimlari asrida yashayotganimizni unutmasligimiz kerak.”

I. A. Karimov

XXI asr boshidan beri fan va texnikaning deyarli barcha sohalarida juda ko'p kashfiyot va ixtirolar qilindi. Ilm-fan jamiyatimizning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib bormoqda. Tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganuvchi har bir fan ulkan kashfiyotlar va ixtirolar qilish odat tusiga kirmoqda. Shunday qilib, XX asr o'rtalariga kelib, kishidan qunt, mehnat va iroda talab etadigan hisob ishlarini avtomatlashtirish, hisoblash mashinasidek murakkab hamda qimmatbaho asbob yaratish zarurati tug'ildi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning o'zluksiz ta'limni isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimining asosi yaratildi. Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimi jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi. Davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi: har bir inson uchun axborot texnologiyalarining tez almashinuvi (o'zgarishi) jarayonida o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini ko'chaytiradi.

Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishda alohida e'tibor qaratilmogda. Bu borada ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmogda. Ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmogda.

Bugungi kunda *Masofali o'qitish* ochiq ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etilmoqda. Hozirda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa, pedagoglarning o'z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvni talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etilishi. o'qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas. Balki o'qituvchilik faoliyatining murakkablashuviga olib keladi, o'qituvchining vazifalari va roli o'zgardi.

Ta'lim tizimining bugungi vazifasi - talaba (o'quvchi, tinglovchi)larni kun sayin ko'payib borayotgan axborot-ta'lim muhiti mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga o'zluksiz ravishda mustaqil ishlash sharoitini yaratib berish zarur. Ta'lim tizimiga masofali o'qitishni joriy etish muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi xaqida turli axborot vositalarida bayon qilinmoqda. Darxaqiqat, masofali o'qitish nima va undan o'zluksiz ta'lim tizimida qanday foydalanilish mumkin, degan bugungi kunda dolzarb savollar bor. Uning kanday shakl, modellari mavjud? Masofali o'qitish muxitida ta'lim qanday rejalashtiriladi? Masofali o'qitish jarayonida qatnashayotgan o'qituvchilar qanday bilim va kunikmalarga ega bulishlari kerak kabi savollarga javob berish vaqti keldi. Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik muammo - o'quvchi va talabalarning mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish. ularning fanga qiziqishini ko'chaytirish. kasbiy bilimlarini cho'qurlashtirish va faolligini oshirishlai iboratdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini qullash o'quvchilarni dars jarayoniga kiziktirish. ulariing faolligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach mamlakatimizni axborotlashtirish muammosini xukumatimiz tomonidan aloxida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Ma'lumotlar uzatish milliy tarmog'ini tashkil etish va jaxon axborot tarmoqlaridan foydalanishni tartibga solish tug'risida»gi. 1999 yil 22

apreldagi «1999-2003 yillarda O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlar o'zlash Milliy tarmog'ini modernizatsiya qilish va rivojlantirish Dasturi tug'risida»gi. 2002 yil 6 iyundagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari tug'risida»gi, 2005 yil 29 dekabrda «ZIYONET axborot texnologiyasini yanada rivojlantirish tug'risida»gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 29 sentabrda «O'zbekiston Respublikasining jamoa ta'lim axborot tarmog'ini tashqil etish tug'risida»gi Qarorlari qabul qilindi. Shu munosabat bilan respublikani ta'lim muassasalarining texnikaviy bazasi. jumladan kompyuter texnikasining yangi avlodi bilan jixozlanishi. shuningdek. ularning Internet tarmog'iga ulanishi. elektron aloqalar bilan ta'minlanishiga e'tibor ko'chaydi. Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalardan kelib chiqib. davlat ta'lim standartlari xayotga qullanilayotgan bir paytda ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashqil etish uchun darsliklarning yangi avlodini yaratish masofali o'qitish texnologiyasini yanada tezroq rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

I BOB. INTERNET TARMOG'IDA TAQIQLANGAN HIMOYA TIZIMINI ISHLAB CHIQUISHNING DOLZARBLIGI

1.1. Elektron globallashuv sharoitida internet tarmog'ini nazorat qilish muhimligi

Bugungi kunda Internet bizning hayotimizga tobora kirib bormoqda. Internetda pochta, telefoniya, biznes(savdo, bank, auksion) ishlari ko'proq amalga oshirilmoqda. Kundan-kunga tarmoqda axborot manbaalari ko'paymoqda.

1997 yildan O'zbekistonda bir qancha Internet xizmatlari provayderlari (ISP) faoliyat ko'rsata boshladilar. Ular xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma korxonalar bo'lib, ko'pchiligi Toshkentda joylashgan. Toshkentdan tashqari faqat UzPAK, Rossia-On-Line (Samarqand, Navoi, Andijon) va Simus (Farg'ona) xizmat ko'rsatmoqdalar.


Abonentlarning ko'pchiligi o'z provayderlari bilan aloqa kanali bo'yicha qo'ng'iroq orqali ulanadilar, ayrimlari ajratilgan aloqa kanallaridan foydalanadilar. Hozir Internet xizmatlarini beradigan 15 dan ortiq ISP larning 70% foydalanuvchilari xususiy, 30%i ma'muriy organlar, vazirliklar, ta'lim muassasalari, shuningdek tijorat tashkilotlaridir.

2004 yilgi hisobotga ko'ra Internetdan foydalanuvchilar soni 600 mln. kishidan ortiq edi. Internet deyarli ta'lim jarayoni uchun ideal muhit vazihfasini o'taydi. Bunga Internet foydalanuvchilarining dunyoning istalgan nuqtasidan tarmoq resurslaridan foydalana olishligi muhim omillardan biri sifatida ko'rsatilmoqda.

Tarmoq foydalanuvchilari va axborot sahifalari soni uzluksiz tarzda o'sib borib, ko'pchilik yoshlar uchun qulay vositaga aylanmoqda. AQSH da o'tkazilgan statistik tadqiqotlarga ko'ra Oliy o'quv yurtlarining yuqori kurs va kollejlari talabalarining 100% i Internetdan foydalanadilar. Talabalar Internetning faol foydalanuvchilari sifatida haftasiga o'rtacha 11 soatni online ga sarflaydilar. Har 10 talabadan 9 tasi kuniga elektron pochatasidan foydalanadilar. Internetdan yangilik, axborot va ish qidiradilar. Amerikalik 5 dan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning deyarli 90 % i kompyuterdan foydalanadilar , bu foydalanuvchilarning 59 % i Internetdan foydalanuvchilardir.

15 yoshli amerikaliklarning har to'rtinchisi Internetdan foydalanadilar, 10 yoshlilar guruhida bo'lsa 60 % ni, 16 va undan kattalarida bu ko'rsatkichlar 80 % ni tashkil etadi (bu ko'rsatkichlar ham vaqt o'tishi bilan ortib bormoqda).

1-rasm. Internetdan foydalanuvchilar (yoshi bo'yicha 2004 yil)



Internet birinchi navbatda axborot tarmog'idir. Katta hajmdagi axborotlar ichidan kerakli ma'lumotlarni topishda maxsus Internet qidiruv mashinalari ta'lim sohasida o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham birday qulaydir. Qidiruv mashinalarida 4 mlrd.dan ortiq unikal sahifalar birlashtirilgan.

O'zbek tilidagi ma'lumotlar qidirishda o'zbek qidiruv mashinalari www.mail.uz, www.doda.uz, www.search.uz, www.ziyonet.uz, www.google.co.uz lar millionlab hujjatlarni qamrab olgandir.

O'qituvchilar va o'quvchilar qidiruv protseduralaridan ta'lim jarayonida faol foydalanishlari mumkin.

Zamonaviy jamiyatda Internet orqali masofaviy ta'limning rivojlanishiga quyidagi ikki sababni ko'rsatish mumkin:

1. Yosh avlodlarning ta'lim potensialiga bo'lgan talabning ortishi, axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, jamiytdagi bilimlarni tezkor almashinuvi, insonni butun umri davomida o'qishi kerakligi, uzluksiz ta'limni zaruriylashishi.

2. Internet tarmog'ining va kompyuter texnologiyalarining rivoji, ishlarni kompyuter va kompyuter dasturlari orqali bajarilishi soddalashishi.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Albatta, bu fikrning barchasidai ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsionallik bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rangbarang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taasurot uyg'otmoqda. Bunday ta'rif, menimcha, ko'p tomondan masalaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabara topishi hech kimga sir emas. Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtaiy nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-sioysiy, tabiiybiologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda. Globallashuv jarayoni hayotimizga tomora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obektiv tan olish kerakki bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki, jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayon-da chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgan singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi inmtergatsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulaylik vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya

va axborot texnologiyalarning, ilmfan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonning kamolotga, yuksak marra'larga chorlaydigan ezgu g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgariidek, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada ketishi hech gap emas. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda U mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi mumkin. Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin. Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi ta'siriga bardosh berishi amrimaholk. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko'plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og'ir oqibatlarga olib kelishini uzoq tushuntirib o'tirishning hojati yo'q.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la rivojlanib olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy bo'ladi.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash,

uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi. Tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunni ilg'or texnologiyalarsiz tasavvur etish o'ta mushkul. Ular hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. World Wide Web – butunjahon o'rgimchak to'ri deb ataladigan internetning imkoniyatlari, bugungi taraqqiyotning tezligiga tezlik, kuchiga kuch bag'ishlayotgani, insoniyat intellektigabemisli hissa qo'shayotgani isbot talab qilmaydigan haqiqat. Oramizda ana shu buyuk ixtironing imkoniyatlaridan bahramand bo'lmagan inson topilmasa kerak. Aytaylik, ushbu risolani ham Siz internetdan yuklab oldingiz. Biroq, bashariyatga naf keltirishi ko'zlangan ushbu vositadan o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirish, odamlarni zalolat va qabohatga undash, ularni to'g'ri yo'ldan adashtirish maqsadida foydalanuvchilar ham yo'q emas.

Internetni dunyoga qiyoslash mumkin. Undan nimani axtarsangiz, topasiz. Faqat topilgan narsa to'g'ri, ishonchli va eng muhimi zararsiz ekanini bilish uchun insonga ong va tafakkur kerak. Oq-qorani tanib ulgurmagan, yaxshiyomonning farqiga bormagan ayrim yoshlar internet orqali uzatilgan ayrim ma'lumot-xabarlarini mutloq haqiqat deb qabul qilish holatlari uchrayotgani kishini jiddiy xavotirga soladi.

Bugungi kunda Yevropa olimlari yoshlarda diniy dunyoqarashning shakllanishi ko'p jihatdan global tarmoq – internet orqali uzatilayotgan ma'lumotlarga bog'liq bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlashmoqda. G'arbda istiqomat qilayotgan ko'plab musulmonlar kundalik duch kelayotgan muammolariga ular amal qilib kelayotgan e'tiqodlari – islom qanday munosabatda ekanini bilishni istaydilar. Tabiiyki, ular bunday sharoitda ma'lumot olishning tezkor vositasi internetga murojaat qiladilar. Masalan, asli kelib chiqishi arab bo'lgan britaniyalik musulmon shu kabi vaziyatda rasmiy va ishonchli ma'lumot olish mumkin bo'lgan Assambleya yoki Liganing bu borada fikri qanday ekanini bilishni xayoliga ham keltirmaydi. U o'z mintaqasi saytlari bo'lmish Young Muslims UK ("Jamoati islomiy" harakati ta'siri ostida shakllangan veb-sahifa) yoki Fatvo va tadqiqot bo'yicha Yevropa qo'mitasi ("Musulmon birodarlar" tashkiloti shafeligidagi veb sahifa)ga murojaat qiladi.¹

Ta'kidlash lozimki, bugun ommaviy axborot vositalarining muayyan mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o'rni favqulotda yuqori suratlar bilan o'sib bormoqda. Aholining ongi va dunyoqarashini shakllantirishda, fuqarolar xorij va mamlakatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan o'zlarining to'g'ri

¹ Muslim networks and movements in Western Europe. Pew Research Center's Forum on Religion & Public Life Washington, D.C. 2010. <http://www.pewforum.org/Muslim/Muslim-Networks-and-Movements-in-Western-Europe-Muslim-World-League-and-World-Assembly-of-Muslim-Youth.aspx>

pozitsiyalarini belgilab olishida ushbu ta'sir vositalarining o'rni va ahamiyati benihoya katta. So'nggi vaqtlarda dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzata turib, avvallari ommaviy axborot vositalari geosiyosiy jarayonlarda oddiygina siyosiy instrument vazifasini bajargan bo'lsa, bugungi kunga kelib ular siyosatni belgilashda muhim sub'ekt vazifasini o'tay boshlaganiga amin bo'lamiz.

Hozirda ekstremistik, terrorchi tashkilotlar zamonaviy kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan faol foydalanmoqda. Qayd etish kerakki, qator mamlakatlarda ekstremistik tashkilotlar faoliyati ta'qiqlanganidan so'ng ular targ'ibotning ilg'or ko'rinishlaridan foydalanishga e'tibor qaratmoqda. Masalan, Afg'onistonda AQSH va ittifoqchi kuchlar bilan murosala nimaligini bilmayotgan Tolibon harakati o'z safiga yangi a'zolari jalb etish, erishilgan "yutuqlar"ni ovoza qilish va zarur ma'lumotlarni e'lon qilish maqsadida 2011-yilning may oyidan boshlab bugungi kunda dunyo bo'ylab ommalashgan "Twitter" ijtimoiy tarmog'idan foydalana boshlagan.²

2011-yilning iyun oyida "Al-Qoida" tashkiloti internet orqali terrorchilik amaliyotini o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalarni o'z gumashtalariga yetkazishga uringani fosh etilgan. Gap shundaki, tashkilotga taalluqli bo'lgan veb sahifalarning birida foydalanuvchilarga yuklab olish uchun qiziqarli jurnal taklif etilgan bo'lib, uning sahifalaridan oddiy oshxona sharoitida qo'lbola bomba tayyorlashni o'rgatuvchi ko'rsatmalar joy olgan. Britaniyaning Daily Telegraph nashri ta'kidlashicha, shu orqali tashkilot butun dunyoda o'z a'zolariga o'zini-o'zi portlatish amaliyotlarining so'nggi uslublari haqida zarur ma'lumotlarni yetkazib borgan.³

"Bugungi kunda terrorchi tashkilotlar uchun yangi a'zo-larni Somali yoki Yaman saxrolaridan qidirish birlamchi uslub emas. Aynan internet ular uchun yangi imkoniyatlar eshigi, minglab a'zolari jalb etish vositasi demakdir", - deydi terrorizm masalalari bo'yicha ekspert Arno de Borshgrav (Arnaud de Borchgrave). Uning fikricha, 11 sentyabr voqealariga qadar dunyo bo'ylab chamasi 20 ta ekstremistik kayfiyatdagi internet saytlari mavjud bo'lgan bo'lsa, ayni kunlarda ularning adadi 1000 dan oshib ketgan.⁴

Bundan kelib chiqadiki interenet tarmog'i orqali har qanday buzg'unchi, vayronkor va bunyodkor g'oyalarni tarqatish eng oson va eng maqbul yo'l hisoblanadi. Bunga sabab uning:

- ❖ internetga oson kirish;
- ❖ uning yetarli darajada tartibga solinmagani;
- ❖ cheksiz auditoriya;
- ❖ internet maydonidagi faoliyatning maxfiyligi;
- ❖ ma'lumotni yetkazishdagi tezlik;

² Jon Boone. Taliban join the Twitter revolution. <http://www.guardian.co.uk/world/2011/may/12/taliban-join-twitter-revolution>

³ Duncan Gardham. MI6 attacks al-Qaeda in 'Operation Cupcake'. <http://www.telegraph.co.uk/news/uknews/terrorism-in-the-uk/8553366/MI6-attacks-al-Qaeda-in-Operation-Cupcake.html>

⁴ Renaud Girard. Les guerres «au scalpel» d'Obama contre al-Qaïda. <http://www.lefigaro.fr/international/2010/08/16/01003-20100816ARTFIG00515-les-guerres-au-scalpel-d-obama-contre-al-qaïda.php>

- ❖ matn, tasvir va ovoz uyg'unligidagi axborotni joylash imkoniyati.

1.2.Internetdagi saytlarni nazorat qiluvchi dasturlar tahlili

Tarmoqdagi foydalanuvchilarni nazorat qiluvchi dasturlar proksi serverlar deyiladi. Proksi (proxy- inglizcha “vositachi, oraliqdagi bo'linma) server – bu foydalanuvchi va internet tarmog'ining o'rtasidagi kompyuter. Proksi server foydalanuvchining barcha murojaatlarini internetga jo'natadi va qabul qilingan javoblarni yana foydalanuvchiga qaytaradi. Kedhlashtirish imkoniyati mavjudligi sababli proksi server foydalanuvchining tashqi resurslarga qilgan murojaatlarini saqlab qoladi va tashqi resursga qayta murojaat qilinsa proksi server o'z xotirasida saqlab qolgan resursni qaytaradi, bu esa so'rov vaqtini avtomatik tarzda kamaytiradi. Ayrim hollarda foydalanuvchi so'rovlari yoki server javobi proksi server cheklab qo'yilishi mumkin. Proksi server so'rovlarni ichki tarmoqni himoya qilish yoki zararli dasturlardan himoyalanish maqsadida ma'lum belgilangan tarmoq resurslarini cheklashi mumkin. Bunday dasturlarga Kerio Control, UserGate, Traffic Inspector, HandyCache, WinGate, Zolotoy Shit kabi dasturlarni misol keltrishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan dasturlar haqida qisqacha ma'lumot bersak.

Kerio Control dasturi - tarmoqaro ekranlashtirish dasturi bo'lib (oldingi nomi Kerio WinRoute Firewall va WinRoute Pro) Kerio Technologies va Tiny Software kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan. Dasturning asosiy maqsadi internetga murojaat xavfsizligini, trafikni tejash, tarmoq xavfsizligini ta'minlashdir. Dasturning avtomatik tarzda yangilanib turuvchi himoya tizimi paydo bo'lgan xavfni topadi va uni zararsizlantiradi.

UserGate dasturi - proksi dastur hisoblanib, u ham xuddi Kerio Control dasturi kabi tarmoqqa ulangan foydalanuvchilarni nazorat qilishga mo'ljallangan. Dasturning interfeysi foydalanuvchi uchun qulay bo'lib, bosh menyuning o'zida foydalanuvchi internet tarmoqdan uzilish yoki ulanish buyruqlarini berish mumkin. Dastur belgilangan foydalanuvchilargagina xizmat

qiladi, ya'ni foydalanuvchilar soni cheklangan bo'ladi. Dastur 2002-yildan buyon muomalada.

Traffic Inspector – proxy dastur, faqat windows platformasida ishlovchi dastur. Tarmoq xavfsizligini ta'minlaydi, trafikni iqtisod (ekonom) qiladi. Bu dastur ham ma'lum bir belgilangan foydalanuvchilarga xizmat qiladi. Dastur 2003-yildan buyon internetda e'lon qilinib kelmoqda.

Zolotot shit – dastur Xitoyda ishlab chiqilgan, loyihasi 1998-yil boshlangan bo'lib, 2003-yilda u butun mamlakat bo'ylab ekspluatatsiya qilingan. Dastur mamlakat provayderlari va xalqaro aloqa kanallari orasidagi ma'lumot almashinuvini serverlardan turib nazorat qiladi.

Bunday dasturlarni juda ko'p misol keltirib o'tish mumkin. Ularning hammasida bir maqsad yotadi. Ular hammasi foydalanuvchilarga taqiqlangan saytlarga kirishini nazorat qiladi, trafikni hisobini olib boradi, tarmoq xavfsizligini ta'minlaydi, zararli viruslar tarmoqdan kirib kelishini oldini oladi.

Lekin bu dasturlarning bir yaxshi tomoni bo'lgani kabi bir kamchiligi ham mavjud va bu kamchilik hozirgi global zamonda juda muhim hisoblanadi. Ularning birortasi ham bizning milliy mafkuramizga mos kelmasligi, foydalanuvchilarni tashqi kuchlar tasirida g'oyalarini o'zgartirishga, milliy mafkuramizni buzishga bo'lgan harakatlarni oldini olish va bartaraf etish kabi masalalar dolzarbligi biz uchun muhimdir. Hozirda dunyo miqyosida xalqaro tarmoqdan foydalanuvchilar soni ko'payib bormoqda, lekin tarmoqdan foydalanishda vatanimiz xalqini turli xurujlardan saqlovchi o'zbek tilida milliy mafkuramizga xos milliy dasturlar yo'qligini ko'rishimiz mumkin.

1.3. Internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi 2002-yil 30-maydagi PF-3080-sonli Farmonini bajarish yuzasidan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida strategik ustivorliklarni amalga oshirishga doir amaliy chora-tadbirlarni ta'minlash maqsadida Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 6 iyunda qaror qabul qilindi⁵. Mazkur qarorda "2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi", kompyuterlash va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash to'g'risida Nizom tuzish vazifalari belgilab berilgan. O'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda ishlar, tegishli idoralar va mutasaddi tashkilot rahbarlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan: XTBga va uning boshkarmalari tomonidan ibratli ishlar qilindi. "Umumta'lim maktablarini kompyuterlar bilan ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida", "Malaka oshirish institutlarida mutaxassislarni xar 3 yilgacha axborot-kommunikatsiya yangiliklari bo'yicha malaka ko'nikmalarini oshirish bo'yicha", "Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun yangi taxrirdagi informatika fanini o'qitilishi bo'yicha darsliklar adabiyot va uslubiy tavsiyalar chiqarish" kabi yo'nalishdagi vazifalar bajarildi. Ayni paytda "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umumiylik dasturi to'g'risida"gi Prezident farmoni va uning ijrosini

⁵ Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 6 iyunda "2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi" haqidagi qarori.

ta'minlashga qaratilgan bir qator xukumat qarorlarining ijrolariga qaratilgan chora-tadbirlar va amaliy ishlar Respublikamizning barcha soxalarida o'z aksini topmoqda. Xususan: XTB, malaka oshirish institutlarini mutaxassislarini Respublikaning kompyuterlashtirilgan na'munaviy ofislarda malakalarini oshirishlari, Respublika ta'lim muassasalaridagi kompyuter texnikasidan samarali foydalanish, o'quv metodik adabiyotlarni va pedagogik dastur vositalarini o'quv jarayonida qo'llash, ijodkor o'qituvchi hamda o'quvchilarni aniqlash va ularning ishlarini ommalashtirish maqsadida viloyatlarda kompyuter savodxonligi bo'yicha metodik dastur vositalari ko'rik tanlovlari bo'lib o'tayotganligi ushbu yo'nalishdagi vazifalarni to'laqonli bajarilishini ta'min etmokda. Mazkur yo'nalishdagi ko'rik tanlov Buxoro shaxrida 2004 yil may oyida bo'lib o'tdi. Unda 6 ta yo'nalish bo'yicha Respublikamizning barcha vilotlaridan ishtirokchilar qatnashdi. "O'quvchilar tomonidan yaratilgan eng yaxshi dasturlar" naminasiyasi bo'yicha "Bobur izidan" veb saxifasi uchun Nodir Bebobekov (Andijon viloyati 31-maktab o'qituvchisi) g'olib deb topildi. Viloyat pedagog xodimlarini barcha yo'nalishdagi fan o'qituvchilari uchun xam kompyuter savodxonligida ishtirok etish masadida davra suxbati va tanlovlar tashkil etilmokda. Bugun O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integrasiyalashish yo'lida faol siyosat yuritib, iqtisodiyot, ilm-fan, ta'lim sohasi va axborot almashish borasida dunyo xalqlari bilan o'zaro xamkorlikni tobora mustaxkamlamoqda. Yurtimizning jadal rivojlanayotgan davlat sifatida jahon aro obro'si yuksalmoqda. Internet-global axborot tizimi. Internet-jahon axborot

uzatish vositasi va axborot tarqatishning eng muxim yangi mexanizimidir. Internet tarmog'ida yurtimizni har tomonlama keng namoyon etish, jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvning tezkor axborot almashuv, jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirishga doir ehtiyoji ortayotganligidan dalolatdir. Maxkur tarmoq orqali milliy axborot, iqtisodiyotimizning yuksalayotganligi namoish etish orqali mamlakatimizni jahon axborot hamjamiyatiga integrasiyalashuvi yo'lida qo'l kelyapti. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati Web-saytining xizmatini alohida takidlash joyizdir. Xuddi shunday "O'zbekiston maktablarida internet" dasturida maktablarda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv texnologiyalarni qo'llash imkonini berali. Umuman olganda kompyuterlashtirish zamon talabidir. O'qituvchi, tinglovchi va o'quvchilarning ushbu yangiliklardan xabardor qilish biz mutaxassislarning birinchi galda vazifalarimizdan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbqiq etish borasida" bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, DTS talablari hamda umummilliy Davlat dasturi vazifalarining ahamiyati, zamonaviy kompyuterlar yordamida axborotlar tizimini fanlar yo'nalishiga mos holda etkazilishiga qaratilmoqda. Kadrlar salohiyati, zukko o'quvchi yoshlar davlat siyosatining bosh masalasiga aylandi. Ularning tayyorlash va o'qitish bilan bog'liq xarajatlar Prezidentimiz tashabbusiga ko'ra malaka oshirish va qayta tayyorlash, iqtidorli bolalar maxsus maktablarini kengaytirishga qaratilgan. Mazkur yo'nalishdagi vazifalarni xal

qilish malaka oshirish instituti Tabiiy fanlar yo'nalishidagi kafedra zimmasiga katta vazifalarni yukladi. Kompyuter nima, undan qanday foydalanish mumkin, kompyuterlar qanday tilda so'zlasha oladi, dasturlash tillari va ulardan foydalanish, kerak degan fiklar vazifa qilib berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, asosiy axborot, axborot-texnologiyalar, axborot-kommunikasiyalar, jahon axborot tizimi yangiliklaridan mutaxassislarni xabardor qilib borish zarurligi asos qilib olindi.

Barcha kurslarni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchilar, bitiruv malakaviy ishlarini ximoya qilish uchun MOMIga shaxsan kelishlari zarur bo'ladi. Muvaffaqiyatli ximoyadan so'ng tinglovchilarga malaka oshirishganliklari haqida qabul qilingan nushadagi xujjat beriladi. MOMIdagi ma'ruzalarni yozish uchun audio, video-kassetalar, SD-disklar qo'llaniladi. Yangi axborot texnologiyalardan (ginermatn, multimedia, GIS-texnologiya, virtual haqiqiylik va boshqalar) keng foydalanish yo'li bilan ma'ruzalar mazmuni boyitiladi.

Tarmoqda va internetda foydalanuvchilarni nazorat qiluvchi Proxy programmasi internet trafikni, qaysi vaqtda qaysi internet adresdan foydalangani, bir necha setkalar bilan ishlash kabi imkoniyatlar mavjud.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da kadrlar tayyorlash tizimiga va ularning salohiyatini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika hamda texnologiyalarining

zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurishga sarflaydigan mutaxassislar darajasiga ko'tarish nazarda tutiladi.

Jahonda informatika va axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan sohadir. Umumiy o'rta ta'limda "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari" fanining o'qitilishidan asosiy maqsad-o'qituvchilarga axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari, ulardan foydalanish jarayonlari haqida puxta bilim berish, o'quv va keyingi ish faoliyatlarida kompyuterlardan oqilona foydalanish ko'nikma hamda malakalarini olishdan, shuningdek, yangi axborot texnologiyalarining mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan xissasi to'g'risida tasavvur qilishdan iboratdir. Shaxsiy kompyuterlarning maktab hayotiga kirib kelishi, uni barcha o'quv fanlarida hamda maktab faoliyatida qo'llash lozimligini ko'rsatmoqda. Kompyuterlarning imkoniyatlari shu qadar kengki, uning yordamida nafaqat tabiiy fanlarga (fizika, ximiya, matematika) oid masalalarini hal qilish, balki formalashtirish ishlari qiyin bo'lgan boshqa fanlar (ona tili va adabiyoti, geografiya, chet tillari, chizmachilik,...) masalalarini hal qilishga egadir.

Kompyuterlarning universalligi, axborotni aniq maqsad yo'lida qayta ishlay olish xususiyati, u qo'llaniladigan sohalarni ko'pligi xalq xo'jaligining barcha sohalarida unumli foydalanilayotganligi XXI-asr kompyuterlar asri ekanligidan dalolatdir. Dasturlash sistemasi paydo bo'lgan dastlabki vaqtlarda translyator va xizmat ko'rsatuvchi dasturlar operatsion sistemaning bir qismi hisoblangan. Zamonaviy sistemalarda bu kabi vositalar va operatsion sistema

o'rtasida chegara aniq bo'lsada, xanuzgacha eski fikr qoldiqlari saqlanib qolmoqda. Deyarli barcha sistemalarda fayllarni boshqarish sistemalari mavjud bo'lib, u sistemaning vazifasini bajaribgina qolmay, balki foydalanuvchiga qulaylik yaratadi. Dasturli ta'limotning ba'zi vazifalari ko'p kompyuterlarda o'xshash bo'lib, ular yordamida protsessor, xotira va boshqa qurilmalarning birgalikda ishlashi tashkil etiladi. Dasturli ta'minot tashqi qurilmalarni apparatli asos sifatida ishlatib, operatsion sistema esa dasturli ta'limot amallarini dasturli asos qilib ishlatadi. Umuman olganda, informatika ta'limining tayanch qismi mazmuni axborot, kompyuter, axborot texnologiyalari, axborot texnologiyalarining istiqbollari mavzusidagi dastur va u bo'yicha tuzilgan matnlarni o'quvchilar, tinglovchilar ongiga singdirish nazarda tutiladi.

II BOB. INTERNET TARMOG'IDA TAQIQLANGAN HIMOYA TIZIMI ALGORITMINI, STRUKTURASINI ISHLAB CHIQISH

2.1. Internetdagi nomaqbul saytlardan himoyalash algoritmini ishlab chiqish

Algoritm soʻzi va tushunchasi IX asrda yashab ijod etgan buyuk bobokalonimiz Muxammad al-Xorazmiy nomi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, uning arifmetikaga bagʻishlangan “Al jabr va al-muqobala” nomli asarining dastlabki betidagi “Dixit Algoritmich” (“Dediki Al Xorazmiy”ning lotincha ifodasi) degan jumalardan kelib chiqqan.

Al-Xorazmiy birinchi boʻlib oʻnlik sanoq sistemasining prinsiplarini va unda turli amallar bajarish qoidalarini asoslab berdi. Bu esa hisoblash ishlarini ixchamlashtirish va osonlashtirish imkonini yaratadi. Chunki bu bilan oʻsha davrda qoʻllanib kelingan rim raqamlari va sonlarni soʻz orqali yozib bajarishdagi noqulayliklar bartaraf etildi.

Dastlab algoritm deyilganda oʻnlik sanoq sistemasidagi sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish qoidalari tushunib kelingan.

Al-Xorazmiyning ilmiy asarlari fanga algoritm tushunchasining kiritilishiga sabab boʻldi.

Algoritm nima? Umuman olganda uni aniq taʼriflash mushkul. Lekin algoritmning mohiyatini aniq va qatʼiyroq tushuntirishga harakat qilamiz.

Algoritm deganda biror maqsadga erishishga yoki qandaydir masalani yechishga qaratilgan buyruqlarning aniq, tushunarli, chekli hamda toʻliq tizimi tushuniladi.

Algoritmga quyidagicha taʼrif berishimiz mumkin: algoritm deb aniq natijaga olib keladigan amallarning cheklangan ketma-ketligiga aytiladi.

Algoritmning xizmati nimadan iborat?

Algoritmlar-bu bilimlar ustida fikrlash va yetkazib berishdan iborat. Haqiqatan ham kimdir qandaydir masalani yechishni o`ylab topib va uni boshqalarga aytmoqchi bo`lsa, u holda u o`ylab topgan yechimini shunday tasvirlashi kerakki, natijada boshqalar ham uni tushunsin, hamda shu tasvirga ko`ra boshqalar ham masalani to`g`ri yechishsin. Shuning uchun tasvir bir necha talablarga bo`ysinishi kerak.

Algoritmning xossalari

Algoritmning asosiy xossalari quyidagilardan iborat:

1. Diskretlilik. Bu xossaning mazmuni-algoritmni doimo chekli qadamlardan iborat qilib bo`laklash imkoniyati mavjudligidadir. Boshqacha aytganda, uni chekli sondagi oddiy ko`rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Algoritmning bu xossasi yuqorida keltirilgan hamma misollarda yaqqol ko`rinib turibdi. Agar kuzatilayotgan jarayonni chekli qadamlardan iborat qilib bo`laklay olmasak, u holda uni algoritm deb bo`lmaydi.

2. Tushunarlilik. Algoritmning ijrochisi hamma vaqt inson bo`lavermaydi. Choy damlashni yoki boshqa ishlarni bajarishni faqat odamga emas, balki robotga ham buyurish mumkin. Ijrochiga tavsiya etilayotgan ko`rsatmalar uning uchun tushunarli bo`lishi kerak, aks holda ijrochi oddiygina amalni ham bajara olmaydi. Bundan tashqari, ijrochi har qanday amalni bajara olmasligi ham mumkin.

O`ar bir ijrochining bajara olishi mumkin bo`lgan ko`rsatmalar yoki buyruqlar birikmasi mavjud bo`lib, u ijrochining ko`rsatmalar tizimi (sistemi) deyiladi. Shuning uchun ijrochi uchun berilayotgan har bir ko`rsatma ijrochining ko`rsatmalar tizimiga tegishli bo`lishi kerak.

Ko`rsatmalarni ijrochining ko`rsatmalar tizimiga tegishli bo`ladigan qilib ifodalay olishimiz muhim ahamiyatga ega. Masalan, pastki sinfnig a'lochi o`quvchisi “son kvadratga oshirilsin” degan ko`rsatmani tushunmasligi

natijasida bajara olmaydi. Lekin “son o`zini o`ziga ko`paytirilsin” shaklidagi ko`rsatmani bemalol bajaradi. Sababi, u ko`rsatma mazmunidan ko`paytirish amalini bajarish kerakligini anglaydi.

3. *Aniqlik.* Ijrochiga berilayotgan ko`rsatmalar aniq mazmunda bo`lishi kerak. Chunki, ko`rsatmadagi noaniqliklar mo`ljaldagi maqsadga erishishga olib kelmaydi.

Odam uchun tushunarli bo`lgan “3-4 marta silkitilsin”, “5-10 daqiqa qizdirilsin”, “1-2 qoshiq solinsin”, “tenglamalardan biri yechilsin” kabi noaniq ko`rsatmalar robot yoki kompyuterni qiyin ahvolga solib qo`yadi. Bundan tashqari, ko`rsatmalarning qaysi ketma-ketlikda bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, ko`rsatmalar aniq berilishi va faqat algoritmda ko`rsatilgan tartibda bajarilishi shart ekan.

4. *Ommaviylik.* O`ar bir algoritm mazmuniga ko`ra bir turdagi masalalarning barchasi uchun ham o`rinli bo`lishi kerak. Ya'ni, masaladagi boshlanQich ma'lumotlar qanday bo`lishidan qat'iy nazar algoritm shu xildagi har qanday masalani yechishga yaroqlidir.

5. *Natijaviylik.* O`ar bir algoritm chekli sondagi qadamlardan keyin albatta natija berishi shart. Bajariladigan amallar ko`p bo`lsa ham baribir natijaga olib kelishi kerak. Chekli qadamdan keyin qo`yilgan masala yechimga ega emasligini aniqlash ham natija hisoblanadi. Agar ko`rilayotgan jarayon cheksiz davom etib natija bermasa, uni algoritm deb ayta olmaymiz.

Algoritmning turlari

Algoritmnlarni asosan 3 turga bo`lish mumkin:

- 1) Chiziqli algoritmlar;
- 2) Tarmoqlanuvchi algoritmlar;
- 3) Takrorlanuvchi algoritmlar.

1. Chiziqli algoritmlar

Chiziqli algoritmlarda asosan hech qanday shart tekshirilmaydi va jarayonlar tartib bilan ketma-ket bajariladi. Demak, chiziqli algoritmlar sodda hisoblashlar yoki amallar ketma-ketligidir. Chiziqli algoritmlarga misol qilib quyidagi formulalar bo'yicha hisoblashlarni keltirish mumkin:

$$, b=s \cdot n$$

2. Tarmoqlanuvchi algoritmlar.

Biror shartning bajarilishi bilan bog'liq ravishda tuziladigan algoritmlarga tarmog'lanuvchi algoritmlar deyiladi. Tarmog'lanuvchi algoritmlar hisoblashlar ketma-ketligini aniqlaydigan shartlarni o'z ichiga oladi. Blok-sxema ko'rinishida bu shuni bildiradiki, blok-sxemada hech bo'lmaganda bitta romb ishtirok etadi. Masalan: ko'chaga qanday kiyimda chiqishimiz ob-havoga, avtomatdan sharbatli yoki mineral suv ichishimiz esa unga qancha so'mlik "jeton" tashlashimizga bog'liqdir. Yuqorida keltirilgan "Sветофор" algoritmi ham tarmog'lanuvchi algoritmgaga misoldir.

3. Takrorlanuvchi (siklik) algoritmlar.

Ma'lum bir shart asosida algoritmda bir necha marta takrorlanish yuz beradigan jarayonlar ham ko'plab uchraydi. Masalan, yil fasllarining har yili bir xilda takrorlanib kelishi, har haftada bo'ladigan darslarning kunlar bo'yicha takrorlanishi va hokazo. Demak, takrorlanuvchi algoritmlar deb shunday algoritmlarga aytiladiki, unda bir yoki bir necha amallar ketma-ketligi bir necha marta takrorlanadi, bu ketma-ketlik tarmog'lardan iborat bo'lishi ham mumkin. Bundan chiziqli va tarmog'lanuvchi algoritmlar takrorlanuvchi algoritmlarning xususiy holi ekanligi kelib chiqadi.

Kerio Control, UserGate va boshqa dasturlar ishlash algoritmi:

1-qadam. Dasturga qora ro'yxat kiritiladi;

2-qadam. Foydalanuvchilar ma'lumotlari kiritiladi;

3-qadam. Zarur hollarda tarmoqdan uziladi;

4-qadam. Tamom.

Dasturlar samaradorligi asosan tarmoq xavfsizligi, trafik hisobini bajarish bilan band bo'ladi. Bu esa bizning maqsadimizga yechim bo'la olmaydi.

1-qadam. Boshlanish.

2-qadam. Online holatda turgan foydalanuvchilarni kuzatish.

3-qadam. "Qora ro'yxat"dagi so'zlar yoki url adresslarga kirishga bo'lgan harakatlarni nazorat qilish va tekshirish.

4-qadam. Zarur holatlarda foydalanuvchilarni so'rovlarini cheklash.


5-qadam. Foydalanuvchilar kategoriya darajalarini belgilash.

6-qadam. Qora ro'yxatni yangilash va o'zgartirish kiritish.

